

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.09.2020.K.82.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TIRKASHEVA SARVINOZ ISOQ QIZI

**AYRIM TERMINAL ATSETILEN SPIRTLARINING KIMYOVIY
O'ZGARISHLARI VA BIOLOGIK XOSSALARI**

02.00.03 – Organik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

UO'T: 547.316.238.284.362.398.544.661.842.621

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Chemical sciences**

Tirkasheva Sarvinoz Isoq qizi

Ayrim terminal atsetilen spirtlarining kimyoviy
o'zgarishlari va biologik xossalari..... 3

Тиркашева Сарвиноз Исоқ кизи

Химические изменения и биологические свойства
некоторых терминальных ацетиленовых спиртов 21

Tirkasheva Sarvinoz Isok kizi

Chemical changes and biological properties
of some terminal acetylene alcohols 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc03/30.09.2020.K.82.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TIRKASHEVA SARVINOZ ISOQ QIZI

**AYRIM TERMINAL ATSETILEN SPIRTLARINING KIMYOVIY
O'ZGARISHLARI VA BIOLOGIK XOSSALARI**

02.00.03 – Organik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.Phd/K416 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy qonush veb-sahifasida (www.cspi.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ziyadullayev Odiljon Egamberdiyevich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Turgunov Erxon
kimyo fanlari doktori, dotsent

Bozorov Xurshed Abdullayevich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «18» I soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-716-68-05, faks (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (322 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-716-68-05, faks (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «3» I kuni tarqatildi.

(2024 yil «3» I dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi).



R.I.Adilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

G.Q.Otamuxamedova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi k.f.f.d. (PhD)

A.G.Maxsumov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda jahonda farmatsevtika, to'qimachilik, mashinasozlik va lok-bo'yoq sanoatida keng masshtabda qo'llaniladigan organik preparatlarga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Natijada yuqori ehtiyojga ega organik moddalar va materiallar ishlab chiqarish yildan yilga ortib bormoqda, bu esa nozik organik sintez asosida yangi avlod organik moddalar olish, ularning qo'llanish sohasini keng ko'lamda o'rganishni taqozo qilmoqda. Jumladan yuqori faollikga ega bo'lgan atsetilen spirtlarini olishning yangi usullarini topish, fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilish hamda maqsadli qo'llanish sohasini aniqlash dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa atsetilen spirtlarini neft-gaz, kimyo, rezina-texnika, lok-bo'yoq va farmatsevtika sanoatida yuqori sifatli preparatlar sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda atsetilen birikmalari asosida fungitsidlar, demulgatorlar va ingibitorlar sintez qilish usullarini aniqlash, jarayonlar borishi va mahsulot unumiga turli omillarning ta'sirini o'rganish, yangi katalitik sistemalarni qo'llash, ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, ularning fizik-kimyoviy, farmakologik va biologik xossalari o'rganish, tarkibi va tuzilishini aniqlash, xususiy va kvant-kimyoviy tavsiflari, texnik shartlari va talablarini ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar bajarilmoqda. Bu borada, terminal atsetilen spirtlari, diollari va diindiollarini sintez qilish usullari va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, ularning fizikaviy, kimyoviy, energetik va mexanik xossalari, kimyoviy o'zgarishlari va faolliklarini tadqiq qilish, ulardan yangi avlod ionitlar, biotsidlar, ingibitorlar, erituvchilar, bo'yoqlar va polimer kompozitlar sifatida foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda dunyo bozorida raqobatbardosh yangi turdagi atsetilen birikmalarini sintez qilishda mahalliy xom-ashyo va ikkilamchi chiqindi mahsulotlaridan maqsadli foydalanish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada atsetilen spirtlari va ularning turli hosilalarini olishning muqobil usullarini aniqlash va ularni joriy etish bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida¹ «Kimyo va gaz-kimyosi sohasini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash» hamda «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «mutlaqo yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish, shu asosda tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlash»² ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada selektiv katalitik sistemalarda terminal atsetilen spirtlari, diollari va diindiollari sintez qilish usullari va texnologiyalarini topish, ularni identifikatsiyalash, texnik hamda texnologik parametrlarini ishlab chiqish va ulardan samarali biologik faol moddalarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 fevraldagi PF-4992-sonli «Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2018 yil 25 oktabrdagi PQ-3983-sonli «O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari ijrosini ta'minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Favorskiy, Kulinkovich, Tyomkin, Reppe va Frignani usullari bo'yicha aldegid va ketonlar asosida atsetilen spirtlari sintez qilingan, lekin molekulasida alifatik, aromatik, siklik va geterotsiklik o'rinbosarlar saqlagan ketonlarni kalsiy karbid ishtirokida alkinillash reaksiyalari o'rganilmagan, atsetilen diollari va diindiollari sintezi amalga oshirilmagan.

Xorijda, ushbu yo'nalishda Gabriella Barozzino aldegidlarni enantioselektiv alkinillash va propargil ketonlarni xemoselektiv qaytarish reaksiyalari bo'yicha atsetilen spirtlarining ratsematlari sintezi, Ryo Takita tomonidan aldegid va ketonlarning asimmetrik alkinillash jarayoni uchun In (III) tuzlari va Pr_2NEt asosidagi katalitik sistema ishlab chiqilgan. Daniel R. Fandrick alkinilborolanning trimetilsililalkin bilan birikishidan hosil bo'lgan reagentning aldegidlar bilan xiral gomopropargil spirtlari, Elena Schmidt esa atsetilenning $\text{Bu}_4\text{NOH}/\text{H}_2\text{O}/\text{DMSO}$ katalitik sistemasida aromatik, geteroaromatik, siklik va asiklik aldegidlar bilan reaksiyasi bo'yicha propargil spirtlar sintez qilingan. Nozaki, Hiyama organik sintezda asimmetrik alkinillash reaksiyasi uchun xrom organik birikmalar asosida yangi katalitik sistema ishlab chiqilgan. Aldegidlarning atsetilen bilan kross aldol kondensatsiya reaksiyasi asosida atsetilen diollari sintezini Gomez-Bengoa kashf etgan. Jeily Ferreira propargil spirtlarining elektrofil reagent *n*-butillitiiy ishtirokida aldegidlar bilan $\text{CeCl}_3/\text{TGF}/\text{NH}_4\text{Cl}$ sistemasi ishtirokida birikishidan propargil diollarini olgan. Xiang Li propargil spirtlarining fosforillanish reaksiyasi ishlab chiqqan, oksidlovchi Ag_2O va katalizator sifatida bis(trifenilfosfin)palladiy (II)-dixlorid qo'llanilgan. Aromatik atsetilen spirtlarining *N*-yodosuksinimid yordamida oksidlanishi natijasida alkinil ketonlar Ruiy Zhao tomonidan olingan.

Respublikamizda atsetilen birikmalar kimyosi yo'nalishida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, A.Maxsumov propargil spirtlari va ularning hosilalari sintezi, E.Turgunov kislorod va azot tutgan polifunksional atsetilen birikmalari sintezi, X.Vapoyev vinil efirlarni sintez qilish texnologiyalari, A.Ikramov geterogen-katalitik usullarda atsetilen spirtlari va efirlarini olish texnologiyalari, S.Turapdjanov aminlar asosida atsetilen spirtlari sintezi, G.Otamuxamedova atsetilen spirtlari murakkab efirlari, S.Abdurahmanova atsetilen spirtlari viniloksi efirlari sintezi ustida ilmiy ishlar olib bormoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №Ф3-20170926416 "Mahalliy xom-ashyolar asosida olingan ionitlar ishtirokida texnologik eritmalar va oqava suvlari tarkibidan metall ionlarini ajratib olish" fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi molekulasida turli xil tabiatga ega bo'lgan ketonlarni kalsiy karbid bilan ammoniy tuzlari yordamida katalitik etinillash reaksiyasi bo'yicha terminal atsetilen spirtlarini sintez qilish, ularning kimyoviy o'zgarishlari asosida diollar va diindiollar olish va qo'llanish sohasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

molekulasida alifatik, aromatik, siklik va geterosiklik o'rinbosarlar tutgan ketonlarni yangi katalitik sistemalar yordamida kalsiy karbid ishtirokida enantiosektiv alkinillash orqali terminal atsetilen spirtlarini sintez qilish usullarini ishlab chiqish;

sintez qilingan terminal atsetilen spirtlari diollarini $\text{Bu}_2\text{NOH/DMSO/H}_2\text{O}$ katalitik sistemasida, diindiollarini $\text{CuCl/TMEDA/CCl}_4/\text{MeOH}$ katalitik sistemada sintez qilishning samarali usullarini topish.

terminal atsetilen spirtlari, diollari va diindiollarini sintez qilishni muqobil sharoitlarini topish, reaksiya mexanizmlarini taklif etish, jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish tartibini aniqlash, kinetik hisoblashlarini amalga oshirish;

tanlangan ketonlarning tabiati asosida terminal atsetilen spirtlarini hosil bo'lish samaradorlik, katalitik sistemalarning selektivlik qatorini aniqlash, atsetilen spirtlari tuzilishi va konfiguratsiyasini kimyoviy o'zgarishlarga ta'sir qilish qonuniyatlari, ximizmi va mexanizmini ishlab chiqish, sintez qilingan birikmalarning reaksiya qobiliyati, faolligi va barqarorligini aniqlash va olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish;

terminal atsetilen spirtlari va ularning hosilalarini konfiguratsiyasi, kvant-kimyoviy hisoblashlari, tozaligi, tarkibi va tuzilishini fizik-kimyoviy tadqiqot usullarida isbotlash va identifikatsiyalash;

terminal atsetilen spirtlari, diollari va diindiollarining maqsadli qo'llanish sohasini tadqiq qilish va ularni amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot obyekti sifatida kalsiy karbid, ketonlar, terminal atsetilen spirtlari, diollar, diindiollar, kompleks katalitik sistemalar, erituvchilar, tuz hosil qiluvchi komponentlar, ingibitor va ionitlar olingan.

Tadqiqotning predmetini terminal atsetilen spirtlari, ular asosida olingan diollar va diindiollar, qurituvchi, katalizator, aktivator, ligand, promotor, erituvchi, ionit va ingibitorlar tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida organik sintez, kataliz, etinillash, izomerizatsiya, oksidlash, dimerizatsiya, spektroskopiya (^1H YaMR-, ^{13}C YaMR-, IQ- va mass-spektrometriya), xromatografiya (YQX, KX), rentgen tuzilish, Hirshfeld sirt tahlili va zichlik funksional nazariyasi (DFT), kvant-kimyoviy va element tahlili usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor molekulasida alifatik, aromatik va siklik o'rinbosarlar saqlagan ketonlarni kalsiy karbid bilan nukleofil birikish reaksiyasi asosida bir qancha reaksiyon faol markazlarga ega bo'lgan terminal atsetilen spirtlari sintez qilingan;

tabiati turli xil ketonlarni yangi kompleks katalitik sistemalar-TBAF·3H₂O/DMSO/H₂O va TBABr/KOH/ PhMe/H₂O yordamida kalsiy karbid bilan reaksiyalari bo'yicha terminal atsetilen spirtlarini sintez qilishning samarali usullari ishlab chiqilgan, qo'shimcha reaksiyalarning borishi, katalizatorlar selektivligi aniqlangan, molekulasida asimmetrik uglerod atomi bo'lgan izomerlar hosil bo'lishi va ularni ajratish mexanizmi topilgan, tarkibi va tuzilishi isbotlangan;

terminal atsetilen spirtlarini sintez qilish reaksiya bosqichlari, ximizmi va mexanizmi taklif etilgan, jarayonlar eng muqobil sharoitlari topilgan, erituvchi, katalizator, ligand va oraliq birikmalarning reaksiya tezligi va faollanish energiyasiga ta'siri hisoblangan, ketonlar tabiati, ularning reaksiyon qobiliyati, jarayon borishi va mahsulot unumiga ta'sir qilish qonuniyatlari ishlab chiqilgan, katalizatorlarning stabiligi, faolligi va qaytar reaksiyalarga ta'siri aniqlangan;

terminal atsetilen spirtlarini sintez qilishga ketonlar tabiati va katalizatorlar faolligini nisbiy samaradorlik qatori ishlab chiqilgan, mahsulot unumini oshiruvchi fragment va kombinatsiyalar topilgan, ularni ta'sir qilish parametrlari isbotlangan;

ilk bor Bu₄NOH/H₂O/DMSO sistemada terminal atsetilen spirtlarini *sp-s* bog'idagi harakatchan vodorodning ketonlar bilan nukleofil birikish reaksiyasi asosida atsetilen diollari sintez qilingan;

terminal atsetilen spirtlarining CuCl/TMEDA/CCl₄/MeOH katalitik sistemada dimerizatsiya jarayoni birinchi marta amalga oshirilgan va yangi turdagi diindiollar sintez qilishga erishilgan;

terminal atsetilen spirtlari va ular asosida olingan diol va diindiollarning xususiy kattaliklari aniqlangan, kvant-kimyoviy parametrlari hisoblangan, tozaligi xromatografik, tuzilishi spektroskopik, molekula va monokristallarning tuzilishi rentgen, Hirshfeld sirt tahlili va zichlik funksional nazariyasi, tarkibi element analiz, absolyut konfiguratsiyalari optik burilish dispersiya usullarida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

molekulasida alifatik, aromatik va siklik o'rinbosarlar saqlagan ketonlar va kalsiy karbid asosida o'n ikki xil terminal atsetilen spirtlari, ularning ketonlar bilan nukleofil birikishidan o'n ikki xil diollar, o'zaro dimerizatsiyalanishidan esa yigirma olti xil diindiollar va bir nechta alkogolyatlar olingan;

terminal atsetilen spirtlari va ular asosida diollar va diindiollarni turli xil katalitik sistemalar yordamida sintez qilishning samarali usullari ishlab chiqilgan, ularning xususiy, fizik-kimyoviy, kvant-kimyoviy, termodinamik, biologik, rentgen, supremolekulyar va spektral xarakteristikalari aniqlangan;

terminal atsetilen spirtlaridan neft va gaz mahsulotlarini oltingugurtli birikmalardan tozalovchi ingibitorlar, qishloq xo'jaligida g'o'za bargini to'kuvchi defoliantlar sifatida qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy IQ-, ¹H YaMR-, ¹³C YaMR- spektroskopiya, mass spektrometriya, xromatografiya (YQX, KX), rentgen tuzilish (RT), Hirshfeld sirt tahlili, zichlik funksional nazariyasi (DFT) va kvant-kimyoviy (ACDFREE) usullar yordamida olingan natijalar asosida ishonchli tarzda qayta hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati terminal atsetilen spirtlari va ularning hosilalarini sintez qilishda erituvchilar roli, katalitik faol markaz va molekularning hosil bo'lishi, ketonlar, spirtlar va ularning hosilalari tabiati, molekula tarkibi, molekulyar massasi, fazoviy tuzilishi, tarmoqlanishi, joylashuvi, simmetrik yoki nosimmetrik holati, elektron bulutlar zichligi va taqsimlanishi, reaksiyada karbokation va karboanionlar hosil bo'lish davri, supremolekulyar xususiyatlari, agregat holatlari, reaksiyaga kirishish qobiliyati, dimerizatsiya va izomerizatsiya reaksiyalari, ularni boshqarish va nazorat qilish tartibi ilmiy qonuniyatlar sifatida ko'rsatib berilganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kalsiy karbid asosida terminal atsetilen spirtlari ilk bor sintez qilingan, yangi kompleks katalitik sistemalar yordamida birinchi marta atsetilen diollar va diindiollar olish usullari ishlab chiqilgan, sintez qilingan spirtlardan qishloq xo'jaligi defoliant sifatida foydalanish, texnologik qurilmalar foydali ish koeffitsiyentini oshirishi ingibitorlar, yangi turdagi dori preparatlari, ekologik toza va yuqori sifatli neft-gaz mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Turli sinflarga mansub bo'lgan ketonlar va kalsiy karbid asosida terminal atsetilen spirtlari sintezi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sintez qilingan terminal atsetilen spirtlari "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MChJda tabiiy gaz tarkibidagi oltinugurt va oltinugurtli birikmalarni ajratib oluvchi ingibitorlar sifatida amaliyotga joriy etilgan ("Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MChJning 2023 yil 19 iyuldagi №454/G'K-07-son ma'lumotnomasi). Natijada, tabiiy gaz tarkibida oltinugurt va oltinugurtli birikmalar miqdorini kamaytirishga, mahsulot tannarxini tushirishga, toza va sifatli tabiiy gaz mahsulotlarini ishlab chiqarishga xizmat qilgan;

sintez qilingan terminal atsetilen spirtlaridan fermer xo'jaliklarida g'ozva o'simligining bargini to'kuvchi defoliantlar sifatida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 23 avgustdagi 07/34-05/4242-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Buxoro-10" va "S-8290" kabi mahalliy paxta navlari hosildorligini 5,7-9,5 s/ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 18 ta, jumladan, 14 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola respublika, 3 ta maqola Scopus bazasidagi va 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **"Atsetilen spirtlari sintezi, texnologiyalari va ularning fizik-kimyoviy hamda biologik xossalari"** deb nomlangan birinchi bobida atsetilen spirtlari (AS) sintezi, kimyoviy o'zgarishlari, ishlab chiqarish texnologiyalari va qo'llanish sohalari tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlilida aldegid va ketonlarni etinilash reaksiyalari asosida AS hamda ularni istiqbolli birikmalari sintezi, ishlab chiqarish texnologiyalari va qo'llanilishi bo'yicha adabiyotlar sharhlangan va ular qiyosiy tahlil qilingan, ilmiy xulosalar asosida dissertatsiya maqsadi, vazifalari va dolzarbligi belgilangan.

Dissertatsiyaning **"Terminal atsetilen spirtlari va ularning turli hosilalarini sintez qilish usullari"** mavzusidagi ikkinchi bobida alifatik, aromatik va siklik tabiatga ega ayrim ketonlarni kalsiy karbid ishtirokida alkinilash orqali terminal atsetilen spirtlari (TAS) ni sintez qilish usullari keltirilgan. Sintez qilingan TAS asosida diollar va diindiollarni olish usullari hamda ularni sintez qilishda foydalanilgan boshlang'ich moddalar, katalizator, erituvchi, qurituvchilar turlari va ularning xususiy xossalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Terminal atsetilen spirtlari, ular asosida atsetilen diollari va diindiollarining olinishi hamda ularning xossalari"** nomli uchinchi bobida tadqiqot obyekti bo'lgan TAS va ularning turli hosilalarini yangi kompleks katalitik sistemalar yordamida sintez qilish jarayonlari tahlil qilingan.

1-usul. TBAF·3H₂O/DMSO/H₂O katalitik sistemasida TAS sintezi:
TBAF·3H₂O/DMSO/H₂O katalitik sistemasida siklogeksanon (1), siklopentanon (2), adamantanon (3), atsetofenon (4), para-xloroatsetofenon (5), etilbutilketon (6), 3,3-dimetilbutanon-2 (7), diizopropilketon (8), metilgeptilketon (9), etilgeptilketon (10), 2-metilsiklogeksanon (11) va 2-izopropil-5-metilsiklogeksanon-1 (12) larning kalsiy karbid bilan reaksiyasi bo'yicha 1-etinilsiklogeksanol-1 (13), 1-etinilsiklopentanol-1 (14), 2-etiniladamantanol-2 (15), 2-fenilbutin-3-ol-2 (16), 2-(4-xlorofenil)butin-3-ol-2 (17), 3-etilgeptin-1-ol-3 (18), 3,3,4-trimetilpentin-1-ol-3 (19), 3-izopropil-4-metilpentin-1-ol-3 (20), 3-metildekin-1-ol-3 (21), 3-etildekin-1-ol-3 (22), 1-etinil-2-metilsiklogeksanol (23) va 1-etinil-2-izopropil-5-metilsiklogeksanol-1 (24) kabi TAS sintez qilindi.



R₁R₂=_n-C₆H₁₁ (13); R₁R₂=_n-C₅H₉ (14); R₁R₂=-Ad (15); R₁=-Me, R₂=-C₆H₅ (16);
 R₁=-Me, R₂=_p-ClC₆H₄ (17); R₁=-Et, R₂=-Bu (18); R₁=-Me, R₂=ⁿ-Bu (19);
 R₁=-Pr, R₂=ⁿ-Pr (20); R₁=-Me, R₂=_n-C₇H₁₅ (21); R₁=-Et, R₂=_n-C₇H₁₅ (22);
 R₁R₂=(2-Me)₂C₆H₄ (23); R₁R₂=(2-ⁿ-Pr-5-Me)₂C₆H₄ (24)

Tadqiqot obyekti bo'lgan TAS unumiga harorat, reaksiya davomiyligi, erituvchi, katalizator va boshlang'ich moddalar mol miqdorlari ta'siri o'rganildi.


Dastlab 20 °C haroratda, DMSO eritmasida, 24 soat davomida TAS unumiga katalizator miqdori ta'siri o'rganildi (1-Jadval). TBAF·3H₂O miqdori 0,25 dan 0,5 molga oshirilganda TAS unumi ortgan. Katalizator miqdori 1 mol bo'lganda, ortiqcha TBAF sistemadagi TAS bilan ketonlarni nukleofil birikishi uchun qulay sharoit yaratishi natijasida qo'shimcha mahsulotlar (atsetilen diollar) hosil bo'ldi.

1-Jadval

TAS unumiga TBAF·3H₂O miqdori ta'siri

TBAF·3H ₂ O miqdori, mol	TAS unumi, %											
	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
0,25 mol	84	67	80	68	72	74	71	60	59	44	77	39
0,5 mol	99	80	92	79	82	86	84	71	68	56	89	52
1 mol	77	59	69	58	62	63	61	49	46	35	64	32

TAS unumiga 12-48 soat intervallarda, 20 °C da, DMSO eritmasida reaksiya davomiyligi ta'siri o'rganildi (1-rasm). Dastlab reaksiya 12 soatda olib borilganida, katalizator katalitik faolligini to'liq namoyon qilmasligi, oraliq birikma kalsiy atsetilenidning yetarli miqdorda hosil bo'lmisligi aniqlandi. Jarayon vaqti 24 soat



1-Rasm. TAS spirtlari unumiga reaksiya davomiyligi ta'siri

bo'lganda, TBAF ning selektivligi maksimum bo'lib, sistemada faol kompleksning hosil bo'lishi bilan faollanish energiyasining kamayishi va reaksiya tezligi ortishi natijasida TAS unumi eng yuqori chiqishi kuzatildi. Reaksiyalar 30 yoki 48 soatda olib borilganda sistemadagi TAS ketonlar bilan diollar, kalsiy karbid bilan efirlar hosil qilishi kuzatildi. TAS sinteziga substrat va reagent mol miqdori ta'siri o'rganil-

di (2-jadval). Jumladan, CaC₂:RCOR' miqdori 1:1 nisbatda olinganida CaC₂ suv bilan hosil qilgan kalsiy atsetilenidining anion miqdori ketonlar bilan yetarli to'qnashuvlar sodir etmasligi TAS unumining pasayishiga sabab bo'ldi.

2-Jadval

TAS unumiga boshlang'ich moddalar miqdori ta'siri


(reaksiya davomiyligi 24 soat, harorat 20 °C, TBAF·3H₂O miqdori 0,5 mol)

CaC ₂ :RCOR' mol miqdori	Mahsulot unumi, %											
	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
1:1	62	54	56	43	56	51	48	37	35	24	55	21
2:1	74	61	68	54	58	62	59	48	45	34	64	32
2,7:1	99	80	92	79	82	86	84	71	68	56	89	52
3:1	88	68	81	67	69	75	72	59	57	46	77	44

CaC₂ RCOR' ga nisbatan ikki marta ko'p olinganda, jarayonda faol kompleks miqdori oshishi natijasida TAS unumi o'sishi aniqlandi. Reagent substrat

miqdoriga nisbatan 3 marta ortiqcha olinsa sistemada TAS vinillanish yoki polimerlanish reaksiyalarining borishi natijasida mono va poliviniloksi birikmalar, ortiqcha CaC_2 keton bilan to'ynmagan yenonlar hosil qilib, TAS unumining pasayishiga sabab bo'ladi.

Ketonlarni etinillash jarayoni 0÷40 °C intervallarda o'rganildi (2-rasm). Harorat 0 °C dan 20 °C gacha ko'tarilganida 13- 68 dan 99% ga, 14- 63 dan 80% ga, 15- 62 dan 92% ga, 16- 50 dan 79% ga, 17- 64 dan 82% ga, 18- 66 dan 86% ga, 19- 62 dan 84% ga, 20- 46 dan 71% ga, 21- 43 dan 68% ga, 22- 38 dan 56% ga, 23- 58 dan 89% ga va 24- 32 dan 52% ga ortishi kuzatildi.



2-Rasm. TAS unumiga harorat ta'siri (reaksiya davomiyligi)

Haroratning oshirilishi katalizator zaharlanish natijasida selektivligini pasayishiga olib kelib, sistemada polimerlanish, sikllanish va vinillash jarayonlari borishi aniqlandi, bu esa TAS unumini pasayishiga olib keldi. TAS unumiga DMFA, DMSO, TGF va MeCN kabi erituvchilarning ta'siri o'rganildi (3-Jadval). Tanlangan erituvchilar orasida DMSO asoslilik xossasini namoyon qilishi orqali TBAF·3H₂O bilan sistemada super ishqoriy muhitni ta'minladi, nukleofil reagentning substrat bilan to'qnashuvlar soni ortdi va reaksiya natijasida TAS maksimum unum bilan hosil qilish imkonini oshirdi.

3-Jadval

TAS unumiga erituvchilar tabiati ta'siri

(harorat 20 °C, reaksiya davomiyligi 24 soat, $\text{CaC}_2:\text{RCOR}'$ mol miqdori 2,7:1)


Erituvchilar	Mahsulot unumi, %											
	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
DMFA	86	63	79	66	71	74	62	58	57	43	76	40
DMSO	99	80	92	79	82	86	84	71	68	56	89	52
TGF	77	72	69	58	62	63	73	49	46	35	64	33
MeCN	84	76	80	68	72	74	81	60	59	44	77	41

Reaksiyalar 20 °C da, 24 soatda olib borilganda, CaC_2 va RCOR' miqdori 2,7:1 nisbatda olinganda TAS maksimum unum bilan olindi hamda TBAF·3H₂O/DMSO/H₂O katalitik sistemasida TAS sintez qilish reaksiyalari uchun muqobil sharoit qilib olindi.

2-usul. TBABr/KOH/PhMe/H₂O katalitik sistemasida TAS sintezi:

Tanlangan ketonlarni etinillash jarayoniga dastlab reaksiya davomiyligining ta'siri 12÷28 soat intervallarda o'rganildi. Reaksiyalar 24 soat davomida olib borilganda TAS eng yuqori – 13- 92%, 14- 78%, 15- 89%, 16- 75%, 17- 80%, 18- 84%, 19- 81%, 20- 69%, 21- 62%, 22- 58%, 23- 86% va 24- 46% unum bilan sintez qilindi. Reaksiya 28 soatda o'tkazilganda esa sistemadagi TAS izomerizatsiya va dimerizatsiya jarayoniga uchrashi hisobiga TAS unumining kamayishi kuzatildi. So'ngra ketonlarni etinillash jarayoniga TBABr va KOH miqdori ta'siri o'rganildi.

Jarayonda CaC_2 , RCOR' va H_2O miqdori 3:1:1 mol nisbatda olindi, reaksiya PhMe eritmasida -30°C haroratda, 24 soat davomida olib borildi. TBABr:KOH miqdori 0,5:0,25 mol nisbatda olib borilganda molekula (ion)larning to'qnashuvlar soni ortishi bilan mahsulot unumi ortishi kuzatildi. 0,25:0,5 mol nisbatda olinganda,



3-Rasm. TAS unumiga katalizatorlar (TBABr va KOH) miqdori ta'siri

TAS unumiga harorat ta'siri o'rganildi. Tadqiqot obyekti bo'lgan reagentlar CaC_2 : $\text{RC(O)R}'$: H_2O :TBABr:KOH miqdori 3,0:1,0:1,0:0,5:0,25 mol nisbatda olindi. Harorat chastotasi 0°C dan -20°C ga pasaytirilganda TAS unumi ortdi. Reaksiya -40°C da olib borilganda TBABr katalitik passivligi hisobiga sistemada atsetilenid va alkogolyatlar hosil bo'lishi ortishi, TAS unumi kamayishi kuzatildi.

4-Jadval

TAS unumiga harorat ta'siri (reaksiya davomiyligi 24 soat, erituvchi PhMe)

Harorat, $^\circ\text{C}$	Mahsulot unufni, %											
	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
-40	87	72	82	69	74	78	75	64	57	53	81	42
-30	92	78	89	75	80	84	81	69	62	58	86	46
-20	78	74	77	62	66	69	68	54	48	46	72	36
0	63	69	61	47	52	56	54	42	35	32	59	27

Etinillash reaksiyalari TBABr/KOH yordamida PhMe eritmasida, 24 soatda, -30°C haroratda olib borilganda TAS yuqori unum (13- 92%, 14- 78%, 15- 89%, 16- 75%, 17- 80%, 18- 84%, 19- 81%, 20- 69%, 21- 62%, 22- 58%, 23- 89% va 24- 46%) bilan sintez qilindi va jarayon uchun eng muqobil sharoit qilib tanlandi.

Tanlangan ketonlar molekulasidagi o'rinbosarlar tabiati, fazoviy joylashuvi, tarmoqlanishi va ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra ularni etinillanish reaksiyasi 2-izopropil-5-metilsiklogeksanon-1 < 3-etilgeptilketon < metilgeptilketon < diizopropilketon < atsetofenon < siklopentanon < para-xloroatsetofenon < 3,3-dimetil-butanon-2 < etilbutilketon < 2-metilsiklogeksanon < adamantanon < siklogeksanon qatori bo'yicha nisbiy faolligining ortib borishi aniqlandi. TAS hosil bo'lish unumi asosida nisbiy samaradorlik qatori 1-etinil-2-izopropil-5-metilsiklogeksanol-1 < 3-etildekin-1-ol-3 < 3-metildekin-1-ol-3 < 3-izopropil-4-metilpentin-1-ol-3 < 2-fenilbutin-3-ol-2 < 1-etinilsiklopentanol-1 < 2-(4-xlorofenil)butin-3-ol-2 < 3,3,4-trimetilpentin-1-ol-3 < 3-etilgeptin-1-ol-3 < 1-etinil-2-metilsiklogeksanol < 2-etiniladamantanol-2 < 1-etinilsiklogeksanol-1 topildi.

Sintez qilingan TAS tarkibi, tuzilishi, tozaligi, molekulyar massasi, qator fizik va kvant-kimyoviy kattaliklari zamonaviy tadqiqot usullari yordamida aniqlandi.


Sintez qilingan TAS ayrim fizik kattaliklari

TAS	Brutto formulasi	Molekulyar massasi	T _q , °C	n _D ²⁰	d ₄ ²⁰	Agregat holati
13	C ₈ H ₁₂ O	124	174	1,482	0,989	Suyuq
14	C ₇ H ₁₀ O	110	159	1,497	0,962	Suyuq
15	C ₁₂ H ₁₆ O	176	264	1,565	1,108	Kukun
16	C ₁₀ H ₁₀ O	146	217	1,562	1,031	Suyuq
17	C ₁₀ H ₁₀ O	180,5	262	1,458	1,209	Suyuq
18	C ₉ H ₁₆ O	140	165	1,456	0,914	Suyuq
19	C ₈ H ₁₄ O	126	137	1,442	0,888	Suyuq
20	C ₉ H ₁₆ O	140	168	1,453	0,872	Suyuq
21	C ₁₁ H ₂₀ O	168	200	1,459	0,879	Suyuq
22	C ₁₂ H ₂₂ O	182	280	1,460	0,876	Suyuq
23	C ₉ H ₁₄ O	138	230	1,488	0,970	Suyuq
24	C ₁₂ H ₂₀ O	180	224	1,480	0,931	Suyuq

TAS ning ¹H- va ¹³C- YaMR spektrlari Bruker Avance 400/101 MHz markali, 20-25 °C da, CDCl₃, atseton-d₆, C₆D₆ erituvchilar ishtirokida tahlil qilindi. **13** – ¹H- YaMR: δ 2.71 (s, 1H, OH), 2.44 (s, 1H, C≡CH), 1.90-1.83 (m, 2H, CH₂), 1.67-1.62 (m, 2H, CH₂), 1.57-1.46 (m, 5H, 2CH₂, CH), 1.22-1.16 (m, 1H, CH); ¹³C- YaMR: δ 87.4, 71.7, 68.1, 39.3, 24.7, 22.7. **14** – ¹H- YaMR: δ 2.41 (s, 1H, C≡CH), 1.97-1.65 (m, 9H, 4CH₂, OH); ¹³C- YaMR: δ 87.6, 73.9, 70.7, 43.2, 23.5. **15** – ¹H- YaMR: δ 2.54 (s, 1H, C≡CH), 2.19-2.13 (m, 4H, 2CH₂), 2.02 (s, 1H, OH), 1.97-1.96 (m, 2H, 2CH), 1.83-1.76 (m, 4H, 2CH₂), 1.71-1.69 (m, 2H, CH₂), 1.59-1.54 (m, 2H, 2CH); ¹³C- YaMR: δ 88.0, 72.7, 38.4, 37.1, 35.1, 31.1, 26.4, 26.3. **16** – ¹H- YaMR: δ 1.80 (s, 3H, CH₃), 2.43 (s, 1H, OH), 2.69 (s, 1H, C≡CH), 7.34-7.31 (m, 1H, CH), 7.41-7.37 (m, 2H, 2CH), 7.69-7.67 (m, 2H, 2CH); ¹³C- YaMR: δ 144.6, 128.0, 127.5, 124.4, 86.8, 72.7, 69.4, 32.7. **17** – ¹H- YaMR: δ 1.76 (s, 3H, CH₃), 2.61 (s, 1H, OH), 2.69 (s, 1H, C≡CH), 7.34-7.32 (d, 2H, 2CH of Ph, J=7.5 Hz), 7.60-7.58 (d, 2H, 2CH of Ph, J=7.5). ¹³C- YaMR: δ 143.1, 133.3, 128.0, 126.0, 86.4, 73.0, 69.0, 32.8. **18** – ¹H- YaMR: δ 2.44 (s, 1H, C≡CH), 2.42-2.38 (m, 2H, CH₂), 1.92 (br, s, 1H, OH), 1.74-1.27 (m, 6H, 3CH₂), 1.07-0.89 (m, 6H, 2CH₃). ¹³C- YaMR: δ 86.3, 71.7, 71.1, 40.7, 34.2, 25.8, 22.4, 8.00. **19** – ¹H- YaMR: δ 2.33 (s, 1H, C≡CH), 2.15 (s, 1H, OH), 1.83 (s, 3H, CH₃), 1.11 (s, 9H, 3CH₃). ¹³C- YaMR: δ 85.4, 71.7, 68.1, 39.3, 24.7, 22.6. **20** – ¹H- YaMR: δ 2.41 (s, 1H, C≡CH), 2.01-1.92 (septet, 2H, 2CH), 1.76 (br, s, 1H, OH), 1.05-0.99 (dd, 12H, 4CH₃). ¹³C- YaMR: δ 84.6, 72.9, 33.7, 17.5, 15.7. **21** – ¹H- YaMR: δ 2.41 (s, 1H, C≡CH), 2.11 (s, 1H, OH), 1.69-1.59 (m, 2H, CH₂), 1.52-1.42 (m, 5H, CH₂, CH₃), 1.31-1.25 (m, 8H, 4CH₂), 0.88 (t, 3H, CH₃, J=7.2 Hz). ¹³C- YaMR: δ 87.8, 71.1, 68.1, 43.5, 31.8, 29.64, 29.61, 29.2, 24.5, 22.6, 14.1. **22** – ¹H- YaMR: δ 2.49 (br, s, 1H, C≡CH), 2.02 (br, s, 1H, OH), 1.62-1.56 (m, 4H, 2CH₂), 1.54-1.45 (m, 4H, 2CH₂), 1.31-1.25 (m, 2H, CH₂), 1.18-1.00 (m, 2H, CH₂), 0.97-0.87 (m, 8H, 2CH₃, CH₂). ¹³C- YaMR: δ 85.7, 70.7, 41.2, 34.5, 31.9, 27.3, 22.4, 14.2, 8.3. **23** – ¹H- YaMR: δ 2.45 (s, 1H, C≡CH), 1.95-1.92 (m, 1H, OH), 1.73-1.46 (m, 4H), 1.39-1.19 (m, 2H), 1.14-1.00 (m, 2H), 0.89-0.84 (dd, J=6.6 Hz, 3H); ¹³C- YaMR: δ 87.1, 72.2, 68.9, 47.9, 39.3,

33.5, 31.8, 29.9, 28.9, 26.4, 22.9, 21.5, 20.3, 15.6. ^1H - YaMR: δ 2.49 (s, 1H, C \equiv CH), 2.38 (br, s, 1H, OH), 2.20-2.13 (m, 2H, CH $_2$), 1.98-1.95 (m, 1H, CH), 1.75-1.59 (m, 4H, 2CH $_2$), 1.34-1.18 (m, 1H, CH), 1.00-0.82 (m, 10H, 3CH $_3$, CH). ^{13}C - YaMR: δ 86.1, 71.4, 66.8, 47.6, 42.6, 34.3, 26.1, 23.9, 21.4, 17.9.

TAS asosida diollar sintezi: ilk bor Bu $_4$ NOH va DMSO asosida tayyorlangan yuqori asosli katalitik sistema yordamida 1-etinilsiklogeksanolning siklogeksanon, siklopentanon, adamantanon, atsetofenon, *p*-xloroatsetofenon, etil-*n*-butilketon, 3,3-dimetilbutanon-2, diizopropilketon, metilgeksilketon, etilgeksilketon, 2-metilsiklogeksanon va 2-izopropil-5-metilsiklogeksanon-1 bilan karbonillash asosida quyidagi 1-[2-(1-gidroksisiklogeksil)etiril]siklogeksanol-1 (25), 1-((1-gidroksisiklopentil)etiril)siklogeksanol-1 (26), 2-[(1-gidroksisiklogeksil)etiril]-adamantanol-2 (27), 1-(3-gidroksi-3-fenilbutin-1-il-1)siklogeksanol-1 (28), 1-[3-(4-xlorofenil)-3-gidroksibutin-1-il-1]siklogeksanol-1 (29), 1-(3-etil-3-gidroksiheptin-1-il-1)siklogeksanol-1 (30), 1-(3-gidroksi-3,4,4-trimetilpentin-1-il-1)siklogeksanol-1 (31), 1-(3-gidroksi-3-izopropil-4-metilpentin-1-il-1)siklogeksanol-1 (32), 1-[3-gidroksi-3-metildekin-1-il-1]siklogeksanol-1 (33), 1-(3-etil-3-gidroksidekin-1-il-1)siklogeksanol-1 (34), 1-((1-gidroksisiklogeksil)etiril)-2-metilsiklogeksanol-1 (35) va 1-((1-gidroksisiklogeksil)etiril)-2-izopropil-5-metilsiklogeksanol-1 (36) kabi atsetilen diol (AD) lari sintez qilindi. AD sintez qilish reaksiya sxemasi adabiyot manbaalari asosida quyidagicha taklif etildi.



25-36

- R $_1$ R $_2$ =-*c*C $_6$ H $_{11}$ (25); R $_1$ R $_2$ =-*c*C $_5$ H $_9$ (26); R $_1$ R $_2$ =-Ad (27); R $_1$ =-Me, R $_2$ =-C $_6$ H $_5$ (28);
 R $_1$ =-Me, R $_2$ =-*p*C $_6$ H $_4$ (29); R $_1$ =-Et, R $_2$ =-Bu (30); R $_1$ =-Me, R $_2$ =-*i*Bu (31);
 R $_1$ =-*i*Pr, R $_2$ =-*i*Pr (32); R $_1$ =-Me, R $_2$ =-*n*C $_7$ H $_{15}$ (33); R $_1$ =-Et, R $_2$ =-*n*C $_7$ H $_{15}$ (34);
 R $_1$ R $_2$ =-(2-Me) $_2$ C $_6$ H $_4$ (35); R $_1$ R $_2$ =-(2-*i*Pr-5-Me) $_2$ C $_6$ H $_3$ (36)

AD unumiga harorat, reaksiya davomiyligi, erituvchi va katalizator tabiati hamda boshlang'ich moddalar mol miqdori nisbatlari ta'siri tizimli ravishda tadqiq qilindi. Bunda dastlab AD sintezi uchun aproton erituvchilar – DMFA, DMSO hamda TGF ta'siri o'rganildi. Karbonillash reaksiyalari 10 °C haroratda, 120 minut davomida olib borildi, boshlang'ich moddalar 1:1 mol nisbatda olindi. Foydalanilgan erituvchilar S $_N$ 2 reaksiyalari uchun qulay sharoitni namoyon qilsada, ammo nisbatan mahsulot unumi DMSO yuqori chiqishi aniqlandi. AD unumiga harorat ta'sirini o'rganish uchun reaksiyalar 0÷20 °C intervallarda olib borildi. Reaksiya 10 °C da olib borilganda eng yuqori unum bilan chiqdi. Jarayon 20 °C olib borilganda sistemadagi Bu $_4$ NOH boshlang'ich reagentlar bilan qo'shimcha mahsulotlar, AD esa diollar bilan vinil efirlar hosil qilishi, shuningdek, sistemada polimerlanish, degidratlanish reaksiyalari natijasida AD unumi pasaydi.

AD sintezi jarayonlari 10 °C haroratda 60-90 minut davomida olib borilganda, reagent va substrat to'liq reaksiyaga kirishmadi. Ammo 120 minutda DMSO ta'sirida boshlang'ich moddalar yuqori darajada dissotsiyalanishni namoyon qildi, 1-etinilsiklogeksanol va ketonlar faol markazlarida to'qnashuvlar soni maksimum

orqali o'ldi, natijada eng yuqori unum bilan 25- 86%, 26- 79%, 27- 80%, 28- 92%, 29- 89%, 30- 82%, 31- 88%, 32- 86%, 33- 85%, 34- 72%, 35- 74% va 36- 54% bilan sintez qilindi. Reaksiya 180 minutda olib borilganda sistemada alkogolyatlar, poliatsetilen spirtlar, ketonlar, vinil efirlar, smolasimon va polimer mahsulotlar hosil bo'lishi natijasida AD unumining kamayishi kuzatildi.

AD sintez qilishda boshlang'ich moddalarning miqdori ta'siri o'rganildi. Bunda 1-etinilsiklogeksanol va ketonlar ekvivalent miqdorda olinganda AD eng yuqori unum bilan hosil bo'ldi. Keton va 1-etinilsiklogeksanol mol miqdori 2:1 (va aksincha) nisbatda olinganda, ortiqcha ketonlarning kondensatsiyaga uchrashi, diketon spirtlar, atsetinilketaldionlar, atsetilen mono va diviniloksi spirtlari hamda polimer mahsulotlar hosil qilishi natijasida AD unumi pasayishi kuzatildi.

6-Jadval

AD unumiga boshlang'ich moddalar mol miqdori ta'siri

Substrat : reagent miqdori	AD unumi, %											
	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36
2:1	76	72	65	72	61	67	75	71	70	57	60	46
1:1	86	79	80	92	89	82	88	86	85	72	74	54
1:2	73	75	68	75	77	69	77	75	74	65	68	48

25 - ^1H YaMR: δ 2.63 (s, 2H, 2OH), 1.93-1.89 (m, 4H, 2CH₂), 1.71-1.66 (m, 4H, 2CH₂), 1.59-1.50 (m, 10H, 5CH₂), 1.24-1.20 (m, 2H, CH₂). ^{13}C YaMR: δ 87.6, 68.2, 40.4, 39.6, 24.7, 23.1. 26 - ^1H YaMR: δ 2.51 (s, 2H, 2OH), 1.92-1.81 (m, 8H, 4CH₂), 1.72-1.64 (m, 8H, 4CH₂), 1.55-1.43 (m, 2H, CH₂). ^{13}C YaMR: δ 83.1, 71.8, 71.1, 67.5, 42.7, 40.6, 25.8, 22.4. 27 - ^1H YaMR: δ 2.56 (s, 2H, 2OH), 2.18-2.12 (m, 4H, 2CH₂), 1.98-1.96 (m, 4H, 2CH₂), 1.84-1.77 (m, 8H, 3CH₂, 2CH), 1.72-1.68 (m, 4H, 2CH, CH₂), 1.58-1.54 (m, 4H, 2CH₂); ^{13}C YaMR: δ 88.0 (C=C), 72.3, 69.0, 42.7, 38.3, 37.1, 35.2, 34.9, 31.1, 26.4, 26.3, 24.7, 22.6. 28 - ^1H YaMR: δ 7.69-7.67 (m, 2H, 2CH), 7.41-7.37 (m, 2H, 2CH), 7.34-7.32 (m, H, CH), 2.44 (s, 2H, 2OH), 1.90-1.83 (m, 2H, CH₂), 1.80 (s, 3H, CH₃), 1.67-1.62 (m, 2H, CH₂), 1.57-1.46 (m, 5H, 2CH₂, CH), 1.22-1.16 (m, H, CH). ^{13}C YaMR: δ 144.5, 127.9, 124.4, 86.8, 72.7, 69.4, 40.6, 32.7, 24.8, 23.4. 29 - ^1H YaMR: δ 7.62-7.56 (d, 2H, 2CH), 7.34-7.31 (m, 2H, 2CH), 2.71 (s, 2H, 2OH), 1.92-1.82 (m, 2H, CH₂), 1.76 (s, 3H, CH₃), 1.66-1.62 (m, 2H, CH₂), 1.58-1.45 (m, 5H, 2CH₂, CH), 1.23-1.17 (m, H, CH); ^{13}C YaMR: δ 143.1, 133.3, 128.0, 125.9, 86.4, 73.0, 69.0, 40.1, 32.8, 25.1, 23.3. 30 - ^1H YaMR: δ 2.43-2.38 (m, 6H, 3CH₂), 1.92 (s, 2H, 2OH), 1.74-1.27 (m, 12H, 6CH₂), 1.07-0.89 (m, 6H, 2CH₃); ^{13}C YaMR: δ 86.3, 71.7, 71.1, 67.2, 40.7, 34.2, 25.8, 22.4, 14.2, 7.95. 31 - ^1H YaMR: δ 2.52 (s, 2H, 2OH), 1.91-1.83 (m, 4H, 2CH₂), 1.67-1.61 (m, 4H, 2CH₂), 1.57-1.46 (m, 5H, CH₂, CH₃), 1.02 (s, 9H, 3CH₃); ^{13}C YaMR: δ 85.9, 72.7, 69.0, 40.7, 34.6, 25.4, 22.8, 14.9. 32 - ^1H YaMR: δ 2.48 (s, 2H, 2OH), 2.20-2.12 (m, 4H, 2CH₂), 1.97-1.93 (m, 2H, CH₂), 1.76-1.58 (m, 2H, 2CH), 1.33-1.16 (m, 4H, 2CH₂), 1.02-0.81 (dd, 12H, 4CH₃); ^{13}C YaMR: δ 88.7, 84.7, 84.1, 67.5, 41.7, 34.6, 25.8, 23.4, 16.7. 33 - ^1H YaMR: δ 2.12 (s, 2H, 2OH), 1.68-1.62 (m, 6H, 3CH₂), 1.48 (s, 3H, CH₃), 1.33-1.26 (m, 16H, 8CH₂), 0.89-0.86 (t, 3H, CH₃). ^{13}C YaMR: δ 85.4, 71.7, 68.1, 44.6, 39.3, 31.9, 29.4, 28.6, 24.6, 22.7, 17.7. 34 - ^1H YaMR: δ 2.31 (s, 2H, 2OH), 1.94-1.89 (m, 4H, 2CH₂), 1.75-1.62 (m, 8H, 4CH₂), 1.44-1.38 (m, 12H, 5CH₂, 2CH), 1.17-1.15 (t, 3H, CH₃);

^{13}C YaMR: δ 89.2, 79.7, 69.7, 41.5, 34.8, 29.3, 25.4, 23.3, 19.2, 14.2, 8.3. **35** – ^1H YaMR: δ 2.71 (s, 2H, 2OH), 2.12-1.95 (m, 8H, 3CH₂), 1.82-1.74 (m, 6H, 3CH₂), 1.55-1.43 (m, 5H, 2CH₂, CH), 0.92-0.89 (d, 3H, CH₃); ^{13}C YaMR: δ 85.2, 73.7, 69.5, 41.8, 32.8, 28.3, 25.4, 23.6, 16.2. **36** – ^1H YaMR: δ 2.26 (s, 2H, 2OH), 1.98-1.8 (m, 12H, 5CH₂, 2CH), 1.75-1.7 (m, 6H, 3CH₂), 1.66-1.6 (m, H, CH), 1.27-1.24 (d, 9H, 3CH₃); ^{13}C YaMR: δ 85.4, 79.7, 69.4, 64.6, 49.1, 34.8, 25.4, 21.3, 18.7.


7-Jadval

Sintez qilingan AD ayrim fizik kattaliklari

AD	Brutto formulasi	Molekulyar massasi	T _q , °C	n _D ²⁰	d ₄ ²⁰	Agregat holati
25	C ₁₄ H ₂₂ O ₂	222	131	1,547	1,10	suyuq
26	C ₁₃ H ₂₀ O ₂	208	122	1,553	1,12	suyuq
